UDK 428 (05)

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

I.M. Usmonaliyev

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiq etilayotgan muammoning bugungi kunda dolzarbligi, uning amaliyotdagi holati, kuzatilayotgan kamchiliklar hamda bu boradagi vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, maqolada tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan ayrim taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilib, yakuniy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *tarixiy tafakkur, muammo, ong, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogika, ruhiyat, yuksalish, kamchilik, strategiya, maqsad.*

В статье рассматриваются педагогико-психологические особенности формирования концепции исторического мышления у будущих учителей. Выявлены актуальность исследуемой проблемы, ее современное состояние на практике, имеющиеся недостатки и задачи, которые необходимо решить. Также разработаны некоторые предложения и рекомендации по рассматриваемому вопросу, сформированы выводы.

Ключевые слова: *историческое мышление, проблема, сознание, будущий учитель, педагогика, психика, восхождение, дефицит, стратегия, цель.*

XXI asr insoniyat hayotiga ilm-fan, texnika taraqqiyoti asri sifatida kirib keldi. Bugungi globallashuv sharoitida insoniyat hayotini ilm-fan yutuqlarisiz tasavvur etish mushkul. Internet, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, umuman olganda, virtual olam taraqqiyoti insonlar hayotini yengillashtirish barobarida “ommaviy madaniyat”, ma’naviy buzuqlikni targ‘ib qiluvchi, milliy ma’naviyatimizga begona bo‘lgan turli xil yot unsurlarning ham kirib kelishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Buning asnosida esa g‘oyalar qarama-qarshiligi vujudga kelmoqda.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki xil g‘oya shakllangan bo‘lib, biri bunyodkorlik bo‘lsa, ikkinchisi buzg‘unchilikdir. Bu g‘oyalar doimo o‘zaro kurashib kelgan. Bunyodkorlik g‘oyasi insonni ezgulik sari yetaklaydi, uni ulug‘laydi, insonning ruhiga qanot bag‘ishlaydi. Buzg‘unchilik g‘oyasi esa xalqlar boshiga sonsiz kulfatlar keltiradi [1. B. 23].

O‘sib kelayotgan yosh avlodni begona unsurlardan asrash, har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash, ularda vatanparvarlik ruhini yuksaltirish, ma’naviyatini oshirish, tarixiy tafakkurini rivojlantirish va ularni ma’naviy-mafkuraviy immunitet bilan qurollantirish har doimgidan-da dolzarb masalaga aylandi. Shuningdek, yosh avlodning tarixiy tafakkurini, tarixiy ongini, milliy g‘ururini va milliy iftixorini uyg‘otish va shakllantirish lozim. Zero, har qaysi yurtning kelajagini aqlan yetuk, jismonan barkamol, ma’nan yuksak takakkurli yoshlar belgilab beradi. Prezident Sh.Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugungi zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [2. B. 14] deganlari ham yoshlarning jamiyat hayotidagi o‘rni nechog‘lik ulkan ekanligini ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 6-noyabr kuni qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni va “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [3. B.

5] PQ-4884-sonli qarorida ta'lim va tarbiya tizimidagi tub o'zgarishlar aks etgan.

Ma'lumki, istiqbolni belgilash, kelajak rejalarni tuzish va taraqqiyot omillarini belgilash uchun o'tmish ko'zgu vazifasini bajaradi. Ana shu "tafakkur mahsuli" orqali biz o'z insoniy mohiyatimizning, aql-zakovatimizning, qudratimiz va salohiyatimizning nimalarga qodirligini ko'ra olamiz. I.Karimov tarix xalq ma'naviyatining asosi ekanligini qayd etgan holda quyidagi fikrlarni bildirgan: "Ma'naviyatni tiklash, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurish uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. ... Tarixiy xotirasi bor inson irodali inson. Takror aytaman irodali insondir" [4. B. 14]. Tarixiy xotira esa o'z navbatida insonda tarixiy tafakkurning shakllanishiga olib keladi. Tarixiy tafakkur insonning tarixiy voqea-hodisalarni tahlil qilish, ularga baho berish, ahamiyatini tushunib yetish qobiliyatini belgilab beruvchi muhim mezon hisoblanadi.

"Mamlakatimiz oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini tugatib, hayotga qadam tashlayotgan har bir yosh mutaxassis, ayniqsa, xalq maorifi tarmoqlarida amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchilari va targ'ibotchilari ularining kasb-kor malakalarini jahon sivilizatsiyasi talablari darajasiga ko'tarmoqlari uchun uzoq davom etgan murakkab evolyutsion jarayonning mahsuli bo'lgan hazrati insonning jismi, ruhiyati va ma'naviyati o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmini to'la tasavvur etishlari lozim" [5. B. 5].

Bugun mamlakatimiz yuksak qadriyatlarga asoslangan yangicha tafakkur g'oyalari asosiga yo'g'rilgan buyuk kelajakka daxldor bo'lgan jamiyat qurish yo'lidan ketmoqda. Azal-azaldan insoniyat tamaddunlaridan biri bo'lgan mamlakatimiz o'z tarixi mobaynida birinchi va ikkinchi renessans davrini boshidan o'tkazgan. Qanchadan-qancha buyuk allomalar, mutafakkirlar, shoir-u olimlar vatani bo'lgan tuprog'imiz bugun uchinchi renessans tomon dadil odimlamoqda. Buning barobarida vatanimizning har bir farzandi ongida yangicha dunyoqarash, yangicha tafakkur g'oyalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki yangicha tafakkur barobarida tarixiy tafakkurning uyg'unlashuvi fuqarolarda vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shish, yurt kelajagi uchun daxldorlik tuyg'ularining shakllanishi bilan birga turli yot g'oyalarga qarshi tura olish immunitetini shakllantiradi.

N.Jo'rayevning fikricha, tarixiy tafakkurni shakllantirishning muhimligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- tarixni anglash orqali hayotni anglash, insonning inson ekanligini anglash tuyg'usi shakllanadi;
- tarixiy tafakkur orqali bugungi hayot mazmuni chuqurroq tushuniladi va kelajak dunyoga keladi. Bu har bir insonning o'ziga xos tafakkur tarixini shakllantirish orqali shaxs sifatidagi fenomenini vujudga keltirishga, fe'l-atvorining shakllanishiga xizmat qiladi;
- tarixni o'rganish orqali o'z qadr-qimmatini, o'zligini anglaydigan, o'z haq-huquqini himoya qila oladigan barkamol shaxsni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi;
- ajdodlari buyuk bo'lgan, jahon sivilizatsiyasi va insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan madaniyatga daxldor fuqaroning qalbida o'tmishni o'rganish orqali milliy g'ururning uyg'onishi, mamlakat mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan bir vaqtda katta ma'naviy qudrat va ulkan iroda kuchi bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda o'z o'tmishining naqadar buyukligini anglagan har bir fuqaro ajdodlar ruhi oldida qarzdor, kelgusi avlod oldida g'oyat mas'uliyatli ekanligini yana bir bor chuqurroq tushunadi. Ana shu anglash jarayoni insonning o'zini o'zi yangilashiga, o'zini o'zi isloh qilishiga olib keladi;
- har bir fuqaroni ma'naviy-ruhiy va axloqiy jihatdan yangilash orqali jamiyatni yangilash, turmush tarzini yangilash kabi g'oyatda chuqur, keng miqyosli islohotlar davrida amalga oshirilayotgan ko'p qirrali o'zgarishlarning asosiy omili sifatida qadriyatga aylanadi [6. B. 17].

Har bir shaxs ulg'aygani sari o'zini-o'zi tarbiyalab boraveradi. Ziyoli qatlam sifatida bo'lajak o'qituvchilar ham o'z-o'zini tarbiyalashda, dunyoqarashini takomillashtirishda tarixiy tafakkurga tayanishi lozim. Har qanday kasbda bo'lganidek, bo'lajak o'qituvchilar pedagogik faoliyatda zarur bo'ladigan bilim, mahorat va ko'nikmalarni egallab olishlari kerak, albatta. Shuning barobarida o'z hissiy kechinmalarini, psixologik holatlarini, pedagogik tafakkurini kamol toptirib borishi lozim. Bunda bo'lajak o'qituvchilar ajdodlarning boy madaniy merosiga, asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadriyat va an'analariga va o'z tarixiy tafakkuriga suyanadi. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek: "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik

tarixida ko‘p bora o‘z isbotini topgan” [4. B. 5]. Zero, har bir buyuk kelajakni barpo etmoqchi bo‘lgan millat o‘z tarixini bilishi va undan ma’naviy ozuqa olib yashamog‘i lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, avvalo, pedagogik bilish, ta’lim va tarbiya va ong darajasida namoyon bo‘ladi. Buni I.Karimovning quyidagi fikrlaridan ham bilish mumkin: “Ta’lim va tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa, biz ko‘zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi” [4. B.184].

Ayni paytda, bo‘lajak pedagog shaxsidagi o‘ziga xos individuallik, betakrorlik, identifikatsiya va refleksiya jarayonlarining o‘quv faolligiga bevosita ta’sirini va bu ta’sir doirasidagi munosabat motivatsiyasiga daxldor pedagogik-psixologik tadqiqotlarni olib bormay turib ta’lim samaradorligini ta’minlab bo‘lmaydi. Bu jabhada bir qancha xato va kamchiliklarni ko‘rish mumkin:

- ta’lim-tarbiya jarayonini tarixiy tafakkur asosida tashkil etish bilan birga bu jarayonga nisbatan bugungi bo‘lajak o‘qituvchining munosabatlarida turli xil pedagogik-psixologik omillar ta’sirining ortib borayotganligi;

- ta’lim obyekti, subyekti, o‘qituvchi, talaba, guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar motivatsiyasining o‘quv jarayonida tez o‘zgarib borayotganligi;

- ta’lim muassasalarida o‘quv faoliyati va o‘quv faolligining o‘zaro mutanosibligiga jiddiy e’tibor qaratishning zarurligi, o‘quv faolligi doirasidagi munosabat motivatsiyalariga ta’sir etuvchi tashqi va ichki psixologik omillarda keskin o‘zgarishlarning kuzatilayotganligi;

- bo‘lajak o‘qituvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirishning inobatga olinmayotganligi shular jumlasidandir.

V.A.Slastenin bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan omillarni ikki turkumga bo‘ladi: subyektiv (ichki) va obyektiv (tashqi) omillar [7. B. 28]. Muallif bo‘lajak mutaxassisning kasbiy moslashuviga ta’sir etuvchi ichki omillarni uning individual-psixologik sifatlari bilan bog‘lasa, obyektiv omillarga muhit va ta’lim shart-sharoiti bilan bog‘liq jihatlarni kiritgan.

V.A.Slasteninning fikrlaridan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlariga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan jihatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda aks etgan.

Subyektiv omillar	Obyektiv omillar
- ijtimoiy-demografik (yoshi, jinsi, oilaviy holati, ma’lumot darajasi); - fiziologik o‘ziga xoslik; - emotsional-hissiy beqarorlik; - o‘zini-o‘zi (o‘z imkoniyatlarini) salbiy baholash; - shaxs nofaolligi; - faoliyatga oid ijtimoiy tayyorgarlikning sustligi.	- ta’lim muassasasidagi mavjud shart-sharoitdan qoniqmaslik; - pedagogik jarayonning tarixiy tafakkur, vatanga muhabbat ruhida tashkil etilmasligi; - vaqtning noto‘g‘ri taqsimlanganligi va shaxs imkoniyatlarining inobatga olinmaganligi;

Shuningdek, yana ba’zi bir psixologik-pedagogik adabiyotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’sir etuvchi omillarning 4 guruhi ajratiladi.

Birinchi guruh omillari ijtimoiy-iqtisodiy bo‘lib, u taraqqiyotning turli bosqichlarida jamiyat hayotiga kirib kelayotgan yoshlarga o‘zlaridagi mavjud kuch va imkoniyatlarni sarflashga turli sohalarni taklif etadi. Birinchi navbatda bu kasblar turi, ularning o‘zgarishi va rivojlanish istiqbollari, jamiyatning u yoki bu mutaxassislarga ehtiyojiga daxldordir.

Ikkinchi guruhni ijtimoiy-psixologik omillar tashkil etadi. Mazkur jarayonda shaxs ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi mikromezon va makromuhit ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy muhit ta’sirida shaxsning qadriyatli yo‘nalganligi, kasblarning turli guruhlariga munosabatning o‘ziga xos ijtimoiy ko‘rsatmalari va stereotiplar shakllanadi.

Uchinchi guruh asl psixologik omillardan iborat bo‘lib, bu shaxsiy qiziqish va moyilliklar, umumiy va xususiy qobiliyatlar, aqliy va shaxsiy

rivojlanish darajasi, xotira xususiyatlari, diqqat motorikasining o‘ziga xosligi kabilardan iborat.

Nihoyat, to‘rtinchi guruh individual psixofiziologik xususiyatlarni o‘z ichiga olib, ulardan ko‘p o‘rganilgani nerv tizimi asosiy xossalarining faoliyat turlariga ta’siri masalasidir. Ular psixik jarayonlar kechishining dinamik tavsifnomalarini belgilaydi, turli temperamentlar ko‘rinishida ifodalanadi va ma’lum faoliyat turini bajarishga ko‘maklashishi yoki, aksincha, uni qiyinlashtirishi mumkin bo‘ladi [8. B. 18].

Inson fiziologiyasi va psixologiyasi sohasida to‘plangan materiallar tahlilidan ko‘rinadiki, bo‘lajak o‘qituvchi 17–19 yoshda ham xulqi va bilim qobiliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi va shunga ko‘ra xulq motivlarining asoslanmagani, uzoqni ko‘ra olmaslik, ehtiyotsizlik kabi hollar ro‘y beradi. V.T.Lisovskiyning fikriga ko‘ra, insonlarning 19–20 yoshlarida ayrim salbiy xatti-harakatlar ko‘zga tashlanadi. Mazkur yoshda xohish va intilishning rivojlanishi iroda va xarakterdan ancha ilgarilab ketadi. Bunda odamning hayotiy tajribasi, ma’naviy va tarixiy bilish darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarda hayotiy tajriba, ma’naviy va tarixiy bilish darajasining yetishmasligi natijasida nazariya bilan amaliyotni, fantaziya bilan reallikni, romantika bilan ekzotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan xohishni, optimizm bilan qat’iylikni aralashtirib yuboradi. Sharq falsafiy qarashlarida insonda doimiy ravishda ikkita qarama-qarshi asos, jism va ruh mavjudligi alohida ta’kidlanishini ko‘rsatib, akademik J.Tulenov ta’kidlaydiki, “Ana shu ikki asos inson vujudida mutanosib bo‘lishi, biri ustuvorlik qilib, boshqasi orqasida ketmasligi kerak. Agar shu tartib buzilib, moddiylik ruhdan ustun kelib, ruh jism quliga aylanib, unga xizmat qilgudek bo‘lsa, unda inson amaliy faoliyatida salbiy holatlar avj olib, ijobiy fazilatlar keyinga surilib tashlanadi. Ruhiy, ma’naviy jihat insonni inson qiladigan, uning hayotini go‘zallashtiradigan fazilatlardandir” [9. B. 215].

Ana shular sababli oliy o‘quv yurti ta’limi oldidagi muhim vazifa bo‘lajak o‘qituvchilarga dasturdagi bilimlardan tashqari tarixiy jarayonlar, ajdodlar merosi, ulug‘ ajdodlarimizning hayot yo‘llari, tuprog‘imizdan yetishib chiqqan allomalarning vatanga bo‘lgan muhabbati, ona tuprog‘imizni ko‘z qorachig‘idek asraganliklarini o‘rgatib borish muhim ahamiyatga ega. Chunki yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarda hayotiy tajribaning boyib borishi bilan birga inson ma’naviy va ruhiy tafakkurining o‘sishiga xizmat qiladi.

Albatta, har qanday faoliyatning orqasida insonning aniq yo‘naltirilgan ehtiyojlari yotadi, chunki ehtiyoj – shaxsni o‘rab turgan muhitga bog‘liqligi, unga ma’lum ma’noda psixologik tobe ekanligini tushuntiruvchi talablar mavjuddir. Shu ehtiyoj ta’sirida paydo bo‘ladigan faollikning turtkisi – motivdir [10. B. 25]. Bo‘lajak o‘qituvchilar motividan ehtiyotkorlik va mohirona foydalangan holda ularni tarixiy tafakkur bilan qurollantirib borish talab etiladi. Eng avvalo, shaxsiy barkamollikka erishish uchun insonning ruhiy barkamolligini ta’minlash zarur. Inson ruhiyatida esa bo‘shliq bo‘lmasligi zarur. I.Karimov bu haqida shunday deydi: “bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo‘shliq bo‘lmaydi. Qayerdadir bo‘shliq paydo bo‘ldimi, hech shubhasiz, uni albatta, kimdir to‘ldirishga harakat qiladi” [4. B. 10].

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik va psixologik xususiyatlari hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning kasbiy motivlarida tarixiy xotira, tarixiy ong tushunchalarini mazmunan boyitib borish lozim. Shaxs pedagogik-psixologik faoliyati jarayonida xotiraning o‘rni beqiyosdir. Xotira har bir shaxsning individual salohiyatiga bog‘liq bo‘lib, uning imkoniyatlari in’ikosini belgilab beradi. Tarixiy ong tizimida xotira “nafaqat tarixiy xotirani saqlaydi, balki inson ongida shakllangan bilim asosida o‘tmishda ro‘y bergan voqealarni tahlil etadi, xulosa chiqaradi, xarakterli tomonlarini qabul qiladi, turmushga joriy etadi va jamiyatning hozirgi sharoiti bilan solishtirib, qadrini belgilaydi” [6 . B. 10].

Bo‘lajak pedagoglarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tarixiy tafakkur asosida rivojlantirish asnosida shaxs xususiyatlarini ham inobatga olish darkor. Shaxs xususiyatlari haqida so‘z yuritib A.Choriyev shunday deydi: “inson uchta qudrat: tana–ruhiyat–ma’naviyatning yig‘indisidir. Insonning biologik holati deganda, uning tanasida, ya’ni jismida sodir bo‘ladigan morfofiziologik, genetik, nerv-miyasida ro‘y bergan va berayotgan elektroximik o‘zgarishlar, uning yoshi, irqi, jinsini ifodalovchi alomatlar tushuniladi. Insonning ruhiy, ya’ni psixologik holati haqida fikr-mulohaza yuritganda, uning his-tuyg‘ulari, kayfiyati, irodasi, temperamenti tushuniladi. Insonning ma’naviyati – jamiyatda mavjud bo‘lgan obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar, ayniqsa, barcha ijtimoiy

institutlar amalga oshirgan tarbiyaviy-mafkuraviy ta'sir natijasida shakllangan fazilatlar, xislatlar, qobiliyatlar, malakalar yig'indisidir. Ma'naviyat insonning ijtimoiy qiyofasini vujudga keltiruvchi generator vazifasini bajaradi. Ma'naviyatning shakllanishida inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi ishtirok etadi. Bisotida mavjud bo'lgan butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi" [1. B. 390].

Bugungi kunda har bir shaxs, shu jumladan, bo'lajak pedagoglarda tarixiy tafakkurni shakllantirishga va ularning shaxsiy barkamolligiga yetaklovchi bir qator pedagogik-psixologik jihatlar mavjud. Jumladan, B.Xodjayev tarixiy tafakkurni rivojlantirishning neyro-pedagogik diagnostik tizimi haqida to'xtalib, uni 3 turkumga – motivatsion, anglash va refleksiyaga bo'ladi [11. B. 18]. Bu jihatlarga alohida yondashish va ularni inobatga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim. Ular quyidagilar:

- bo'lajak o'qituvchining ruhiyatidagi kamchiliklar yoki nuqsonlar mavjud bo'lsa, ularni tarixiy xotira bilan to'ldirish va tuzatib borish;

- bo'lajak o'qituvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tarixiy tafakkur tushunchasiga munosabatini aniqlash va tizimli ravishda ongini yuksaltirib borish;

- bo'lajak o'qituvchilarning hayotiy tarzini kuzatib borish va ularning ma'naviy qiyofasini aniqlash, kamchiliklar ustida fikr yuritib, buyuk allomalarimiz hayot yo'llarini yanada chuqurroq anglatib borish;

- bo'lajak pedagoglarning shaxsiy qiziqishlari, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini aniqlab, ularning qiziqishlari va aqliy barkamolliklari orqali tarixiy tafakkurni yuksaltirib borish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni bo'lajak o'qituvchilarga qiziqarli tarzda tashkillash;

- yurtimizdagi ko'zga ko'ringan, ilm-fan sohasida yutuqlarga erishgan insonlar bilan davra suhbatlari, treninglarni muntazam olib borish hamda suhbatlar davomida vatanga muhabbat, uning o'tmishi, buguni va kelajagiga daxldorlik tuyg'usiga yo'g'rilgan g'oyalarni ilgari surish kabilarni aytish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchi tarixiy tafakkurining yuqori darajasi uni muntazam ravishda mustaqil faoliyatga jalb qilish orqali shakllantiriladi [12. B. 15].

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson eshitish yoki tinglashdan ko'ra o'z ko'zi bilan ko'rgan narsalarini ko'proq yodida saqlab qoladi [13. B. 7]. Shuning barobarida ko'rilayotgan jarayon, voqelik qanchalik mazmunan boy, sifat darajasi yuqori bo'lsa, inson kamolotida, shaxs ma'naviyatida shunchalik katta iz qoldiradi.

Taklif va tavsiyalar. Bizningcha, nafaqat bo'lajak o'qituvchilarning, balki har bir shaxsning psixologik, jismoniy, aqliy rivojlanishi va kamol topishi, ularda tarixiy tafakkur g'oyalarining yuksalishida, vatanparvarlik tuyg'ularining rivojlanishida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, shaxs kamolotida ko'rish orqali shakllanishning ahamiyati yuqori. Shuni inobatga olgan holda, ommaviy axborot vositalari, televideniye va matbuotda buyuk allomalar va ulug' qadamjolar haqida ko'rsatuvlar, eshittirishlar va dasturlar sonini ko'paytirish, yoshlar qatlamining e'tibori va qiziqishini inobatga olish;

- kino san'atini yuksaltirish. Buyuk tariximizni, ulug' ma'naviyatimizni qiziqarli tarzda o'zida aks ettirgan kinofilmlarni ko'paytirish va sifat darajasiga olib chiqish;

- yosh avlodni muzeylar faoliyati bilan tanishtirib borish, ekskursiyalar tashkil etish asnosida tarixiy merosga hurmat tuyg'ularini shakllantirish;

- yuksak qadriyatlarimiz va tariximizni tarannum etuvchi ijod namunalarini ko'paytirish, ularni yoshlar qatlami qiziqishlarini inobatga olgan holda tayyorlash;

- vatanimiz taraqqiyotiga samarali hissa qo'shgan zamonamiz qahramonlari, yetakchi olimlar, madaniyat va san'at sohasida obro' va hurmat qozongan insonlar ishtirokida tariximizni, milliylikni tarannum etuvchi teleko'rsatuvlar va jonli uchrashuvlarni doimiy tarzda tashkillashtirib borish;

- ichki turizm sohasini yanada kengaytirish. Mamlakatimiz ulug' qadamjolar va madaniy merosga boy hudud hisoblanadi. Mamlakatimizning har bir hududida me'moriy obidalar, ulug' ajdodlarimiz qadamjolari mavjud. Yosh avlodning ular bilan tanishishi, ularni chuqurroq o'rganishi ularda tarixiy tafakkur, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantiradi;

- milliy hunarmandchilikni targ'ib etish, ustoz-shogird an'analarini yanada takomillashtirish, milliy hunarmandlarimiz ishlaridan namunalarni namoyish etish lozim. Usta-hunarmandlarimiz ishtirokida davra suhbatlari va uchrashuvlarni ko'paytirish va mehnatga, hunarga bo'lgan hurmat hamda muhabbatni yuksaltirish;

- ona tiliga hurmat tuyg‘usini shakllantirish. Ommaviy axborot vositalari, jumladan, televideniyeda adabiy til me’yorlariga amal qilishni qat’iy nazorat qilib borish. Zero, har bir shaxs, avvalo, madaniyati va tarixini o‘z ona tilidan topadi;

- jamoatchilik ta’sirini kuchaytirish. Saviya jihatidan sayoz, milliy mentalitetimizga va qadriyatlarimizga mos kelmaydigan, begona g‘oyalarga va qarashlarga yo‘g‘rilgan har qanday material, chiqishlar, ko‘rsatuvlar va eshittirishlarga jamoatchilik fikrini qaratish va ta’sir kuchini kengaytirish;

- ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar saviyasini yuksaltirish va ularni sifat darajasiga olib chiqish;

- ta’lim tizimida ijtimoiy fanlar mavqeyini yanada oshirish. Tarixiy tafakkurni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarning o‘rni beqiyosdir;

- internetdan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish. Bugungi globallashuv sharoitida internet kishilarning kundalik turmush tarzidan mustahkam o‘rin egalladi. Global tarmoqda foydali imkoniyatlar bilan birga, milliy ma’naviyatimizga begona, o‘zida buzg‘unchilik kabi yomon illatlarni ham targ‘ib etuvchi materiallar ham mavjud. Shuning uchun bugungi kun yoshlarida internetdan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, ularda tarixiy tafakkur va milliy g‘urur asosida immunitet shakllantirish shular jumlasidir.

Adabiyotlar:

1. *Мирзиёев Ш.М.* Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
2. *Karimov I.A.* Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 108 b.
3. *Shodmonova Sh.* Maktabgacha ta’lim pedagogikasi, – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 160 b.
4. *Choriyev A.* Inson falsafasi: Inson to‘g‘risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. – 416 b.
5. *Jo‘rayev N.* Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 459 b.
6. Баркамол авлод орзуси (“Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”ни амалга ошириш борасидаги публицистик мулоҳазалар). – Тошкент: Шарқ, 2000. – 183 б.
7. *Rahimov B.X.* Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-madaniy manosabatlarning shakllanishi: Ped. fan. nomz. diss... – Toshkent, 2002. – 108 b.
8. *Rahmonov R., Fayziyev F.* Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 56 b.
9. *Туленов Ж.* Фалсафий маданият ва маънавий камолот. – Тошкент: Меҳнат, 2000. – 362 b.
10. *Kenney J.K.* A deadly discovery. – USA.: 2018. – 189 p.
11. *Ходжаев Б.* Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: Пед. фан. док. ...дисс. – Тошкент: ТДПУ, 2016. – 314 б.
12. *Шоназаров Қ.Р.* Бўлажак тарих ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларида тарихий тафаккурни шакллантиришга тайёрлаш: Пед. фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2002. – 134 б.
13. *Самибрев Х., Ширинбоев Ш.* Маҳалла-тарихий хотирани тарбиялаш маскани. // Мулоқот, 2003. – № 3. – Б. 86–91.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF FORMATION OF HISTORICAL THINKING IN FUTURE TEACHERS

I.M. Usmonaliev [1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2022. 2(62). 41–48.

Andijan State University, Andijan, 170100, str., University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords. historical thinking, problem, consciousness, future teacher, pedagogy, psyche, ascension, deficiency, strategy, purpose.

This article discusses the pedagogical and psychological features of the formation of the concept of historical thinking in future teachers. The current significance of the problem under study, its current state in practice, the shortcomings observed and the tasks to be performed are identified. The importance of forming the professional competence of future teachers on the basis of historical thinking and the application of the necessary pedagogical tools in practice were also emphasized. The article also provides some suggestions and recommendations on the topic under study. Historical experience shows that there are two kinds of ideas in the world, one is creative and the other is destructive. These ideas have always been at odds. The idea of creativity leads a person to goodness, glorifies him, gives wings to human spirit.

The pedagogical and psychological features of the formation of historical thinking in future teachers are manifested primarily at the level of pedagogical knowledge, education and upbringing and consciousness. This can be seen in the following thoughts of I.Karimov: “Education and upbringing is a product of consciousness, but at the same time it is a factor that determines the level of consciousness and its development. Therefore, it is impossible to change the mind without changing the education system. Without changing our minds, our ultimate goal is not to build a free and prosperous society."

At the same time, education in the personality of the future teacher is a direct impact of the processes of individuality, uniqueness, identification and reflection on learning activity, and education without conducting pedagogical and psychological research on the motivation of attitudes within this influence efficiency cannot be ensured. There are a number of flaws and shortcomings in this area:

- The organization of the educational process on the basis of historical thinking, as well as the growing influence of various pedagogical and psychological factors in the attitude of today's future teachers to this process;
- Frequent changes in the motivation of the relationship between the object of study, the subject, teacher, student, group in the learning process;
- In the process of developing historical thinking in future teachers, the development of a culture of information consumption is not taken into account. Based on the above considerations, the following conclusions can be drawn: "Theoretical foundations of the development of historical thinking in future teachers in the process of pedagogical education" has a special relevance in the education system. The importance of the development of historical thinking in future teachers and the full development of the ideas of historical memory, commitment to universal values in their professional development was analyzed.

References:

1. Mirziyoev, Sh.M. (2016) *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz* [Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan]. Tashkent: O‘zbekiston.
2. Karimov, I.A. (2008) *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch* [High spirituality is an invincible force]. Tashkent: Ma'naviyat.
3. Shodmonova, Sh. (2008) *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi* [Pedagogy of preschool education].Tashkent: Fan va texnologiya.
4. Choriev, A. (2007) *Inson falsafasi: Inson to‘g‘risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti* [Human philosophy. The development of philosophical ideas about man]. The first book. Tashkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
5. Jo‘raev, N. (2008) *Tarix falsafasining nazariy asoslari* [Theoretical foundations of the philosophy of history].Tashkent: Ma'naviyat.
6. Karimov, I.A. (2000) *Barkamol avlod orzusi* (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi publitistik mulohazalar) [Journalistic comments on the implementation of the “National Training Program”]. Tashkent: Shark.
7. Rahimov, B.X. (2002) Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-madaniy manosabatlarning shakllanishi [Formation of professional and cultural relations in future teachers]. The Dissertation for the Candidate of pedagogical Sciences. Tashkent.
8. Rahmonov, R., Fayziev, F. (2008) *Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira* [Historical consciousness and historical memory in the formation of youth worldview]. Tashkent: O‘zbekiston.
9. Tulenov, J. (2000) *Falsafiy madaniyat va ma'naviy kamolot* [Philosophical culture and spiritual maturity]. Tashkent: Mehnat.
10. Kenney, J.K. (2018) A deadly discovery. USA.

11. Xodjaev, B.X. (2016l) “Umumta'lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didktik ta'minot vositasida rivojlantirish. [Development of historical thinking in secondary school students through modernized didactic support]. The dissertation for Doctor of pedagogical Sciences. Tashkent.

12. Shonazarov, Q.R. (2002). Bo‘lajak tarix o'qituvchilarini maktab o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash [To prepare future history teachers to form historical thinking in schoolchildren]. The Dissertation for the Candidate of pedagogical Sciences. Tashkent.

13. Samibrev, X., Shirinboev, Sh. (2003) Mahalla-tarixiy xotirani tarbiyalash maskani [The mahalla is a place of historical memory]. *Muloqot.* No 3. Pp. 86-91.

Muallif haqida ma’lumot:

USMONALIYEV Ikromjon Murodjon o‘g‘li – Andijon davlat universiteti Umumiy pedagogika kafedrasi 2-bosqich tayanch doktoranti. E-mail: ikromjonusmonaliyev606@gmail.com